

**TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISHDA INSON XATOSI XAVFINI
KAMAYTIRISH VA SIFATNI OSHIRISHDA AQLLI
TEXNOLOGIYALARING ROLI**

Amirov Islombek Dilshodbek o'g'li

Andijon davlat universiteti, 3-talabasi.

E-mail: islombek.a.d.1606@gmail.com

Mahmudova Diyora Baxtiyorjon qizi

Andijon davlat universiteti, 3-kurs talabasi.

Email: diyoramahmudova347@gmail.com

Annotatsiya: Aqli texnologiyalar, ta'lism sifatini nazorat qilishda inson xatosini xavfini kamaytirish va sifatini oshirishda katta ahamiyatda ega. Bu texnologiyalar o'qituvchilar va talabalarga interaktiv ta'lism usullarini taqdim etishda, ta'limgni monitor qilishda, o'qish va tushuntirish xatolarini aniqlashda va tuzatishda yordam berishda, va shaxsiy ta'lim rejalarini va tavsiyalarini taqdim etishda yordam beradi. Bunday texnologiyalar ta'lism sifatini yangilashda muhim o'rinn o'yndaydi va inson xatosini kamaytirishda va ta'lism sifatini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Interaktiv ta'lism usullari, Individual ta'lism usullari, ta'limgni monitoring qilish, xatolarni aniqlash va tuzatish, shaxsiy ta'lim rejalarini va tavsiyalar, o'qitish usullarini osonlashtirish, ta'lism sifatini yaxshilash, xususiy ta'lism usullari, online talim, video darslar.

KIRISH

O'zbekiston Republikasi Prezidenti "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lism samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarororiga binoan. Ta'lism sohasida kadrlarni jismonan sog'lom, ma'nani yetuk, mustaqil fikrlaydigan, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega vatanimizning taqdidi va kelajagi uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol yosh avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda mamlakatimizda ta'lism soxasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Yoshlar ta'limga tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyatga tatbiq etish, respublikamizda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va boshqa sohalardagi islohotlar ulg'ayib kelayotgan o'spirin yoshlar iqtidorini yanada rivojlantirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yurt ravnaqi yo'lida ularning faol ishtirokini ta'minlashni bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilamoqda.

Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lism samaradorligini yanada oshirish, o'quvchi-yoshlarda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, ularning

bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, kasb-hunarga yo'naltirish orqali mustaqil hayotga tayyorlash, intellektual barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qildilar.

ASOSIY QISM

Aqli texnologiyalar ta'lim sifatini nazorat qilish jarayonida insoniyatga xato va kamchiliklarini kamaytirish va o'qituvchi o'quvchilarga dars o'tish jarayonida bo'layotgan o'quv mashg'ulotlarini sifatini yaxshilashda juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek aqli ta'lim texnologiyalari talabalar uchun o'z-o'zini test qilish, va o'zlashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bunday ta'lim usullari o'qituvchilar uchun ham yordamchi hisoblanadi, chunki ular o'qitish usullarini osonlashtiradi va talabalarning individual ta'limini taminlashga yordam beradi. Aqli ta'limning yana bir hammamizga tanish bo'lgan turlardan biri masofaviy ta'lim. Birgina oliy ta'limdan misol qiladigan bo'lsak yaqinda Prezident farmoniga bilan tashkil etilgan Masofaviy ta'limni aytishimiz mumkin. Bu ta'lim tizimi talabalarga ta'limning boshqa joylarda yoki o'qituvchilar bilan birgalikda bir vaqtda birlashishga imkoniyat beradi. Masofaviy o'qish imkoniyatlari asosan o'quvchilar uchun uyda chiqmasdan va har qanday joyda o'qish imkoniyati beradi. Bu esa uzoqdan qatnovchi talabalarni transport xarajatlari va ta'lim muassasaga kelmay holda turar joy va boshqa xarajatlar qilishdan ancha yiroqda hisoblanadi.

Endi aytadigan bo'lsak ma'sofaviy tizimda ham oflayin o'quv jarayonlarida ham o'quvchi va o'qituvchilarni interaktiv ta'lim usullari foydalanish ta'lim sifatida ham muhim bir ro'l o'ynaydi. Interaktiv ta'lim usullari o'rganuvchilarni o'zlarining o'zini o'rgatish uchun hamda interaktiv ta'lim dasturi va vositalari yordamida ilgari ko'rilgan ta'lim tizimidir. Asosan bu usul o'quvchilarga o'rganish jarayonida birqancha qulay bir imkoniyatni beradi.

Interaktiv ta'lim usullaridan video darsliklar bu talabalarga nima beradi desak, yani o'qituvchi tomonidan berilgan dasrliklarni mustaqil o'rganish imkonini beradi. Interaktiv sinovlar deganda bu usulda asosan talabalar darslarni yaxshi o'zlashtirganligi qay darajada darslarga ma'suliyat bilan yondashayotganligi haqida sinov qiladi. Bu usul asosan talabalarning bilim darajasini oshirishga yordam beradi. Vebinnerlar- bu usul bilan o'rganuvchi talaba bilan o'qituvchi o'rtasida online darslar va konfrensiyalarda ishtirok etishi va o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni yangi ma'lumotlar almashinishi imkonini beradi. Yana bir usullardan o'yin usullari bo'lib unda talabalarni bilim darajasini tekshirishda va o'zlashtirishini oshirishda yordam beradi. Individual ta'lim usullari yordamida ta'limni monitoring qilishda, dars jarayonida o'qituvchi talabalarning xatolarni aniqlash va tuzatish imkonini beradi. Bu individual ta'lim degani talaba dars jarayonida amaliymi yoki nazariymi tushinmay

qolsa o‘quvchi o‘qituvchidan dars jarayonida o‘zlashtira olmagan joylarini o‘qituvchi yordamida hatolarni topgan holda to‘g‘rilashga imkon beradi. Shunay qilib ta’lim sohasida aqli texnologiyalarni foydalik tomonlari talaygina. Misol uchun rivojlangan davlatlardan Amerika ta’lim tizimi, bir nechta aqli texnologiyalardan foydalanadi. Bu texnologiyalar, darsliklar va o‘qituvchilar uchun onlayn ta’lim platformalari, barcha o‘qitish tashkilotlarida foydalaniladigan tizimlar, video va audio texnologiyalari, qo‘sishma axborotlar va kabi imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi.

Bunday texnologiyalardan biri, interaktiv ta’lim texnologiyalari hisoblanadi. Bu texnologiyalar, onlayn darsliklar va testlar ko‘rsatishni va foydalanuvchilar bilan interaktiv o‘qitishni o‘z ichiga oladi. Yana bir texnologiya, virtual darsliklar bu, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun virtual darsliklarni taqdim etuvchi tizimlar orqali amalga oshiriladi. Virtual darsliklarda, o‘quvchilar uchun interaktiv darsliklar, interaktiv testlar mavjud bo‘ladi. Hozirgi kunda, onlayn ta’lim platformalari, masalan, Khan Academy, Coursera, Udacity va edX kabi, o‘quvchilar uchun o‘zlarining o‘ziga xos dasturlarni o‘rganishlariga imkon beradi. Bu platformalar o‘quvchilar uchun video darslar, testlar va boshqa yordamchi materiallarni taqdim etadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimi ham ko‘plab aqli texnologiyalardan foydalanadi. O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma’lum qilinadi, 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab, "O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim xizmatlarining raqamli axborot texnologiyalari tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaror qabul qilindi. O‘zbekiston ta’lim tizimida interaktiv ta’lim platformalari, onlayn darsliklar, testlar va o‘qituvchilar bilan interaktiv tarzda kommunikatsiya qilish imkonini o‘z ichiga oladi. Bunday platformalar o‘quvchilarga o‘zlarining o‘qish va o‘rganishlariga mo‘ljallangan bir qator texnologiyalarni taqdim etadi. O‘zbekistonda ko‘plab aqli ta’lim platformalari, "O‘zbekistan-IT" platformasi va maktablar uchun "Hokim akademiyasi" hisoblanadi. Bu platformalar abiturentlar va oliy o‘quv yurtlarida o‘quvchilar uchun o‘ziga xos platforma, o‘quvchilarga foydali bo‘lgan axborot va materiallar, masalan, video darslar, testlar, olimpiadalar va o‘quv materiallarni taqdim etadib beruvchi platformalardan. Lekin hozirgi kunda, O‘zbekiston ta’lim tizimi, onlayn ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratmoqda. Bu, o‘quvchilarni o‘rganishlariga qulayliklar taqdim etadi va o‘qituvchilar uchun yangi ta’lim usullarini amalga oshirishga imkon beradi.

XULOSA

Har qanday ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim sohasidan hoh maktab bo‘lsin, hoh akademik litsey, hoh kollej bo‘lsin jamiki ta’lim sohasida aqli texnologiyalar bundan keyingi hayotimizda keng qo‘llanilib kelinadi. Birgina sabablardan biri yer yuziga insoniyatga Covid 19 virusi tarqalganda yaqqol misolini ko‘rishimiz mumkin. Sababi ko‘plab ta’lim tizimi online ta’lim tizimiga hali tayyor emas edi. Barcha ta’lim tizimlaridan tortib toki davlat ishchi hodimlar ham shunday online tizimga o‘tishga

majbur bo‘lindi va shu paytda ta’lim tizimida aqlli texnalogiyalardan foydalanib ta’lim olishlikaka majbur bo‘lindi. Shu asnoda aytadigan bo‘lsak aqlli texnalogiyalar yanada mukammalroq qilib ishlash chiqish va har qanday vaziyatlarda aqlli ta’lim texnalogiyalar ta’lim sohasida ehtiyojimiz borligi anglab yetishimiz mumkin. Ta’lim tizimida aqlli ta’lim texnalogiyalari ro‘li juda katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “2018-yildagi ta’limga oid qarori”.
2. "The Role of Intelligent Technology in Improving Learning Quality" - Mohammad Al-Smadi va Mahmoud Al-Smadi tomonidan yozilgan maqola
3. "Intelligent Technology and Learning Quality: A Comprehensive Review" - Sajjad Hussain va Saifullah Khan tomonidan yozilgan maqola
4. "The Role of Intelligent Technology in Enhancing Learning Outcomes" - S. S. Al-Samarraie va A. N. Hamad tomonidan yozilgan maqola
5. "The Impact of Intelligent Technology on Learning Quality" - Ehsan Naeimi va Behnam Bahrak tomonidan yozilgan maqola
6. "Intelligent Technology and Learning Quality: A Systematic Review of the Literature" - Ahmed Tlili va Mahmoud Neji tomonidan yozilgan maqola